
Qo'shtepa tumani statistika bo'limi O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish mohiyati, maqsadlari va tamoyillari mavzusida davra suhbatini o'tkazdi.

Qo'shtepa tumanida 2019 yil 2 oktyabr kuni mahalla jamoat fondi bilan birgalikda PF-5655-son Farmoniga muvofiq mahalla jamoat fondida davra suhbatini bo'lib o'tdi. Davra suhbatida Qo'shtepa tumani statistika bo'limi bosh mutaxassisi so'zga chiqib, 2022 yilda aholini ro'yxatga olish bo'yicha o'z tushunchalarini gapirib o'tdi.





O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5655-son Farmoniga muvofiq respublikamizda 2022 yilda aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish belgilandi. Bunday ma'lumotlar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni oldindan baholash, bandlik sohasidagi siyosatni belgilash, ijtimoiy siyosat va aholi salomatligi bo'yicha dasturlarni yaratishda, shuningdek, davlat hokimiyati organlarining vazifalarini bajarishi, ilm-fan va jamiyatni axborot bilan ta'minlash uchun zarurligini ta'kidlab o'tdi.

Qo'shtepa tumani statistika bo'limi bosh mutaxassisi A.Ashurov